


“Миллий ва халқаро туризмни ривожлантиришнинг
инновацион стратегиялари” мавзусидаги халқаро
илмий-амалий конференция

International scientific-practical conference on: “Innovative
strategies for the development of national and international
tourism”

Международная научно-практическая конференция
на тему: “Инновационные стратегии развития
национального и международного туризма”



МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ
CONFERENCE PROCEEDINGS
СБОРНИК СТАТЕЙ

“Миллий ва халқаро туризмни ривожлантиришнинг инновацион стратегиялари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами. 2019 йил 27 сентябрь. - Бухоро: 2019. (2-қисм)

Мазкур тўпланда 2019 йил 27 сентябрь куни Бухоро давлат университети Туризм ва меҳмонхона хўжалиги кафедраси ҳамда Бухоро Иқтисодиёт ва банк коллежи билан ҳамкорликда ўтказилган халқаро илмий-амалий конференциянинг мақолалари ифодаланган.

Олий ва касб – ҳунар таълими, умумтаълим мактаб ўқитувчилари, катта илмий ходим, мустақил тадқиқотчи ва изланувчилар, магистр ва бакалавр талабалари, ўрта махсус, касб-ҳунар таълими ўқувчилари ушбу анжуман тўпламидан фойдаланишлари мумкин.

Масъул муҳаррирлар:

Д.Ш.Явмутов–Иқтисодиёт ва туризм факультети декани, и.ф.н., доцент

С.С.Рўзиев – Бухоро давлат университети, и.ф.н., доцент

Б.С.Исомов— Бухоро давлат университети, и.ф.н., доцент

Ташкилий қўмита:

1. Б.Н. Наврўз-зода – БухДУ Сервис соҳаси иқтисодиёти кафедраси профессори, и.ф.д.
2. А.Т. Жўраев – БухДУ Халқаро ҳамкорлик бўйича проректор, и.ф.н., доцент.
3. Ҳ.Р.Ҳамроев – БухДУ Туризм ва меҳмонхона хўжалиги кафедраси доценти, и.ф.н.
4. С.У.Тожиева – БухДУ Сервис соҳаси иқтисодиёти кафедраси мудири, и.ф.н., доцент
5. С.С.Хўжаев – Бухоро Иқтисодиёт ва банк коллежи директори
6. М.М.Аслонов – Бухоро Иқтисодиёт ва банк коллежи директор ўринбосари
7. Қ.Х.Бобомуродов – Бухоро Иқтисодиёт ва банк коллежи директор ўринбосари
8. Н.Н.Хайруллаева – БухДУ Туризм ва меҳмонхона хўжалиги кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўпланда киритилган мақолаларнинг мазмуни, ундаги статистик маълумотлар, саналарнинг тўғрилигига ҳамда танқидий фикр-мулоҳазаларга муаллифларнинг шахсан ўзлари масъулдир.

procedure. Informal assessment is most often used to provide formative feedback. As such, it tends to be less threatening and thus less stressful to the student. However, informal feedback is prone to high subjectivity or bias.

Formal assessment occurs when students are aware that the task that they are doing is for assessment purposes, e.g., a written examination or OSCE. Most formal assessments also are summative in nature and thus tend to have greater motivation impact and are associated with increased stress. Given their role in decision-making, formal assessments should be held to higher standards of reliability and validity than informal assessments.

Continuous vs. Final Assessment. Continuous assessment occurs throughout a learning experience (intermittent is probably a more realistic term). Continuous assessment is most appropriate when student and/or instructor knowledge of progress or achievement is needed to determine the subsequent progression or sequence of activities. Continuous assessment provides both students and teachers with the information needed to improve teaching and learning in process. Obviously, continuous assessment involves increased effort for both teacher and student.

Final (or terminal) assessment is that which takes place only at the end of a learning activity. It is most appropriate when learning can only be assessed as a complete whole rather than as constituent parts. Typically, final assessment is used for summative decision-making. Obviously, due to its timing, final assessment cannot be used for formative purposes.

References :

1. Apple, D.K. & Krumsieg. K. (1998). Process education to teaching. USA institute handbook. Pacific Crest, 2013
2. McAlpine, Ways to assess and test . Midea publication . 2002
3. [http:// google.com // evaluation and assessment](http://google.com//evaluation%20and%20assessment)

TILDA LISONIY BIRLIK VA NUTQIY BIRLIKNING IFODALISHI USULLARI

Narzullayeva Feruza

Buxoro Davlat Universiteti, Ingliz tilshunosligi kafedrası o`qituvchisi

Annotatsiya : Ushbu maqola til , lison , til birligi hamda nutqiy birlik tushunchalariga qaratilgan bo`lib , maqolada xilma xil misollar orqali bu konseptlarning farqlari keltirib o`tilgan .

Annotation : this article is devoted to the theme of language and speech, unit of language and speech . And also it describes all these notions and concepts with different samples .

Kalit so`zlar : til xotirasi, moddiy hodisa , oppositsiya , nutq birligi, qoida , aql

Keywords : language memory , financial action , opposition , unit of speech ,rule , wisdom

Til murakkab qurilishga molik bo`lib, dastlab uning ikki holati – lison va nutq farqlanadi. Lison – kishi miyasidagi til xotirasi qismida mavjud til birliklaridan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat boylik. Nutq esa ana shu boylikdan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasi.

Lison kishi miyasidagi til xotirasi qismida mavjud mavhum hodisa bo‘lib, aql bilan idrok qilinadi; nutq esa ana shu mavhum hodisadan foydalanish jarayoni natijasida yuzaga keladigan moddiy hodisa bo‘lib, uni talaffuz birliklari sifatida eshitamiz (yozuvda esa ko‘ramiz).

Lisonda mavjud hodisalarga lisoniy birliklar deyiladi; lisoniy birliklarning nutq jarayoni natijasida moddiy shakl olgan holatiga nutqiy birliklar deyiladi.

Har bir kishining miyasidagi til xotirasi qismida lisoniy birliklarning va ulardan foydalanish qoidalarining ramzlari mavjud, har bir kishi ehtiyojga qarab bu ramzlardan foydalanib nutq hosil qiladi.

Ayrim adabiyotlarda til bilan nutq o‘zaro dixotomiya, oppozitsiya hosil etuvchi hodisalar deb qaralib, til nutq tarzida baholanadi. Aslida til bilan nutq dixotomiyasi haqida, oppozitsiyasi haqida gapirish to‘g‘ri emas (dixotomiya yunoncha dika – ikki qismga + tom ajratish; oppozitsiya lot. oppositio - qarama-qarshi holatda bo‘lish), chunki til bilan nutq – butun bilan qism munosabatidagi hodisalar. Nutqqa muqobil holda ajratiladigan hodisa deb til emas, balki lison ta’kidlanishi lozim. Bu munosabatni chizmada quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

Lison bilan nutq o‘zaro dixotomiya hosil etadi, lekin zidlanuvchi (oppozitiv) hodisalar emas, balki asos va hosila munosabatidagi hodisalar. Bunday munosabatni lisondagi boylikdan foydalanish jarayonini ham hisobga olgan holda quyidagicha chizma bilan ko‘rsatish mumkin:

Til hodisasi dastlab nutqda paydo bo‘ladi, takror-takror ishlatilishi natijasida miyaning til xotirasi qismida bu hodisaning ramzi shakllanadi, keyinchalik ana shu ramzdan nusxa olib nutqiy birlik hosil qilinadi. Demak, asli til hodisalari nutqdan lisonga ko‘chadi va keyin-gina lisondan nutqqa olib chiqiladi. Bunday ikki tomonlama munosabatni chizmada quyidagicha aks ettirish mumkin:

Lisonda bor imkoniyatlar-gina nutqda voqelanadi, lisonning imkoniyatlari boy bo‘lib, nutqda uning ma’lum bir qismi-gina namoyon bo‘ladi deyishdan lison go‘yo azaliy, tug‘ma, mukammal degan fikr tushuniladi. Vaholanki hali tili chiqmagan go‘dakning miyasidagi til xotirasi qismida hech qanday ramz bo‘lmaydi; go‘dak nutqni egallay boshlaganidan keyin-gina miyasida ramzlar paydo bo‘ladi. Demak, lison azaliy (zot) emas, balki nutq asosida shakllanadigan, to‘ldiriladigan boylik. Tilning taraqqiyoti nutq yordamida voqe bo‘ladi.

Har qanday yangilik, masalan, yangi leksema yasash, boshqa tildan leksema olish avvalo nutqda voqe bo‘ladi, bu yangilik til taraqqiyoti qonunlariga zid bo‘lmasa lisonda ramz sifatida muhrlanadi, ana shundan keyin lisondagi bu ramzdan nusxa olib nutq hosil qilinadi.

Yuqorida aytilgan mulohazalardan xulosa shuki, lisonni mutlaq, azaliy, birlamchi deb qarash asosli emas. Tilni o‘rganish, o‘rgatish ham lison asosida emas, nutq asosida amalga oshiriladi, chunki bevosita kuzatishda berilgan hodisa – nutq. Nutqni kuzatish orqali til qurilishini, til qurilishining lison deb ataladigan holatini anglashga harakat qilinadi. Tilshunosning tilni kuzatish, o‘rganish quroli – nutq. Tilga, lisonga xos hodisalarning mohiyati, bu hodisalar orasidagi munosabatlar nutqni kuzatish orqali

aniqlanadi. Ushbu qo'llanmada hozirgi adabiy o'zbek tilining qurilishi mavhum fikrlash yo'li bilan emas, balki bevosita kuzatishda berilgan nutqiy hodisalar tahlili asosida bayon qilinadi.

Til tovushining lisoniy birlik holatini eshitib, ko'rib bo'lmaydi, faqat aql bilan idrok etish mumkin. Shunga ko'ra til tovushlari tizimini tasvirlash ularning nutqiy birlik (talaffuz birligi) holati asosida amalga oshiriladi.

Til tovushlarini og'zaki yo'sinda tasvirlash talaffuz birliklari bilan, yozma yo'sinda tasvirlash esa harfiy ifodalar yordamida amalga oshiriladi.

Til birligi deb (nutqiy birlik deb ham) tovushning o'zini ko'rsatish lozim; harf – til birligini yozib ifodalash uchun o'ylab topilgan shartli, ikkilamchi vosita; harfni til birliklari qatoriga kiritish xato.

Til tovushini yozib tasvirlashda asosan amaliy yozuvga xizmat qiladigan alifboda foydalaniladi. Lekin hozirgi amaliy alifboda "bir tovush – bir harf" munosabatiga to'liq erishilmagani sababli til tovushlari tizimini tasvirlashda alifboga qo'shimcha harflar kiritiladi. Ushbu darslikda hozirgi adabiy o'zbek tilining tovushlar tizimi hozir joriy etilgan o'zbek lotin alifbosiga kompyuter xotirasidagi kengaytirilgan lotin alifbosi imkoniyatlaridan foydalanib quyidagi o'zgarishlarni kiritgan holda tasvirlandi:

- 1) o harfi o'rta-tor tovushni ifodalash uchun ishlatilib, o harfidan foydalanilmadi;
- 2) O'zbek tilining lablashgan keng tovushi b harfi bilan ifodalandi;
- 3) j harfi sirg'aluvchi tovushni ifodalash uchun qoldirilib, portlovchi tovush 3 harfi bilan ifodalandi;
- 4) ch harflar tizmasi o'rniga c harfi, sh harflar tizmasi o'rniga s harfi, ng harflar tizmasi o'rniga n harfi, g harfi o'rniga g harfi ishlatildi.

Kishi tanasining til tovushlarini hosil qilishda qatnashadigan a'zolari haqida Tilning tovushlar tizimini tasvirlashdan oldin kishi tanasining til tovushlarini hosil qilishda qatnashadigan a'zolari faoliyati bilan zarur darajada tanishish lozim (Bu haqda to'liq ma'lumot "Tilshunoslikka kirish" o'quv predmetida beriladi).

Til tovushlari hosil qilishda qatnashadigan a'zolarining deyarli barchasi avvalo fiziologik (biologik) vazifa bajaradi; faqat ovoz hosil qilishga xizmat qiladigan a'zo – ovoz paychalari (bu paychalarning tarang tortilishini ta'minlovchi kemirchaklar ham) tovush hosil qilish uchun xoslangan. Bu paychalarni tovush paychalari deb nomlash xato, chunki bu paychalarni o'pkadan chiqariladigan havo oqimi zarb bilan ritmik tebratishi natijasida ovoz hosil bo'ladi. Bu yerda hosil bo'ladigan ovozning o'zi hali tovush emas, tovush og'iz bo'shlig'ida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. "O'qituvchi", T.: 1980.
2. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. 3– nashri, T.: 1987.
3. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 3– nashri, "O'zbekiston", T.: 1992.
4. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. "O'qituvchi", T.: 1993.

Ta'lim tizimida pedagogik va axborot texnologiyalarning o'rni <i>Elmurodova D.X. Buxoro yuridik kolleji</i>	233
Современные аспекты русского языка и литературы <i>Хамраева Лола Нарзуллаевна. 23- школа города Бухары</i>	235
Проблемы изучения русского языка и литературы в школах республики Узбекистан <i>Хамраева Лола Нарзуллаевна. 23- школа города Бухары</i>	238
Роль учителя в обществе Самадова Д.К.- Юридический колледж Бухарской Области	241
Oliy ta'lim tizimida o'qitish samaradorligini baholash <i>Raupova I.B. Buxoro muxandislik texnologiya instituti o'qituvchisi</i>	245
Ta'lim strategiyasini aniqlash zarurligi <i>Raupova I.B. Buxoro muxandislik texnologiya instituti o'qituvchisi</i>	247
Роль агротуризма в развитии индустрии гостеприимства <i>БухГУ, к.э.н., доцент кафедры экономика Таурова М.М. студентка 3 курса факультета Экономики и туризма Муратова Н.У.</i>	249
Перспективы развития туристического бизнеса <i>старший преподаватель БухГУ Уракова Махсад Хакимовна студент совместного проекта БухГУ и Казанского Федерального Университета Негматов Муроджон Шухратович</i>	251
Tuproqning paydo bo'lishi va ayrim xususiyatlari <i>Artiqova Manzura. BuxDU birinchi bosqich magistri</i>	253
Nurota ekoturistik rayonining ekoturistik imkoniyatlari. Xolov Yo.D., Sharipova Z. <i>BuxDUi, Ekologiya va atrof-muhit muhofaza qilish yo'nalishi 2-bosqich talabasi</i>	256
Особенности туристической отрасли Узбекистана <i>Б.С. Исомов. БухДУ., Абдуллаева Зулфизар студентка 2 курса факультета экономики и туризма БухДУ</i>	257
Инновационный менеджмент на предприятиях туристской индустрии Узбекистана <i>Арипова М.С. Бухарский государственный университет</i>	260
EVALUATION AND ASSESSMENT IN FLTL: ROLE AND PLACE <i>Khayrulayeva Nodirabegim Nemtilloyevna, Bukhara State University, Department of English linguistics, teacher Eshonkulova Nasiba, Student of Bukhara State University</i>	262
TILDA LISONIY BIRLIK VA NUTQIY BIRLIKNING IFODALISHI USULLARI <i>Narzullayeva Feruza, Buxoro Davlat Universiteti, Ingliz tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi</i>	265
TURISTIK OQIM TUSHUNCHASI HAMDA UNING TURIZM STATISTIKASINI OLIB BORISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI O'RNI <i>Djafarova N.A., Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasini o'qituvchisi Razzoqova Gulchehra, Iqtisodiyot va turizm fakulteti 3bosqich talabasi</i>	268

“Fayz Print” MChJ
Bichimi 60x84. Kegli 13 shponli. «Times» garn.
Ofset qog‘ozi. Bosma tabog‘i 24. Adadi kelishilgan shartlarda.
Bahosi kelishilgan narxda